

## O‘ZBEK TILIDA MORFEM TUSHUNCHASI VA UNING TAHLILI

**Matjanov Sherali Ataxanovich**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI O‘zbek tili kafedrasida assistent o‘qituvchisi*

**Soburova Umida Kuanishbay qizi,**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

Til har qanday millatning o‘zligini o‘zida mujassam etib beruvchi asosiy ko‘rsatkich sifatida alohida ahamiyatga molik hodisa. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng tilimizning takomili aynan o‘zbek tilining boshqa turkiy xalqlar tili qatorida rivojlanib boyib bordi. Rus tilidan o‘zlashgan so‘zlarning o‘zbek tilida muqobil variantlari topildi va amaliyotga tadbiiq etilib bugungi kunda iste’molda qo‘llanib ham kelinmoqda. Umuman olganda grammatika, milliy mafkura bir-biri bilan bog‘liq holda rivojlanadi. O‘zlashma so‘zlarning muqobil ekvivalenti bilan almashtirilishi hodisasida ham aynan o‘sha jism, narsa yoki predmetning qo‘llanilish jarayoni bilan bog‘liq hodisa yoki o‘sha buyumni mentalitet nuqtayi nazaridan ham nomlash so‘zning ma’noli qismlarini shakllantirishdagi asosiy ko‘rsatkichlardan deb baholasak bo‘ladi.

Til yaxlit tushuncha bo‘lib, bu yaxlitlik leksik, fonetik hamda grammatik butunlikni tashkil eta olishi kerak. Ular bir-biridan ajrala olmaydi, biri ikkinchisiz mavjud bo‘la olmaydi. Umumiy turkiy tillarda sintaktik qurilish bir xil bo‘lishi mumkin, ammo morfologik qurilish har xil bo‘ladi. Gapning markazi hamisha kesim bo‘ladi va u o‘z atrofida boshqa bo‘laklarni uyushtiradi. Odatda o‘zbek tilida gap bo‘laklari ma’lum tartib asosida joylashadi. Kesim gap oxirida, ega gap boshida, sifatlovchi sifatlanmishdan oldin kabi holatlar asosiy qolipni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ammo ba’zi hollarda qolip shakli o‘zgarish hodisasi ham uchraydi. Bunday holatlarda ma’no o‘zgarmaydi.

Til hamisha harakatda bo‘ladi ya’ni taraqqiy etadi. Eskirgan so‘zlar o‘rnini yangisi egallaydi, so‘zlar tiriladi yoki mutlaqo muomaladan chiqib ketadi. Ayni shu so‘zlarning qo‘llanilishi va ularning ma’no farqlash vazifalari haqida gap ketganda morfema terminini tahlil etish o‘rinli. Ushbu atama “So‘zning ma’no elementlari” izohi bilan qo‘llaniladi. “Morfemika so‘zning eng kichik ma’noli qismlari haqidagi ta’limotdir”.<sup>1</sup> Unga ko‘ra morfemalar ko‘rinishi ham har xil

<sup>1</sup> Mahmudov N. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi

bo'ladi. Morfema so'z yasalishiga ham so'z o'zgarishiga ham asos bo'la oladi. Tadqiqotlarga ko'ra o'zak va affikslar morfema bo'la oladi. Morfemalar avvalo til elementidir, shuning uchun ham u xotirada saqlanadi. Morfemalarga bo'linish hodisasini til hodisasi deb qarash o'rinlidir, chunki u so'zlovchining xotirasida saqlanadi.

Morfema ifoda jihatidan tovushdan keyin turadigan birlik. Umuman olganda morfemani so'zning qayta bo'linmaydigan eng kichik qismi sifatida ifodalash mumkin. Masalan, yurtdoshlarimizning so'zi yurt, -dosh, -lar, imiz, -ning kabi morfemalardan tarkib topgan. Shu nuqtayi nazardan ham morfemalar bir-biridan farqlanadi ya'ni bir kichik affiks morfema o'zakning asosiy ma'nosiga ta'sir ko'rsat oladi. Yuqoridagi so'z tahlilida yurt so'ziga -dosh so'z yasovchi morfema qo'shib asosning ma'nosini tubdan o'zgartirgan. Ma'no anglatishiga ko'ra morfemalar ikki turga ajratib o'rganiladi: yetakchi morfema va ko'makchi morfema. Morfemalarni aniqlashda so'z qismlari ma'no anglatish xususiyati yetakchi o'rinni egallaydi. Affiks morfema avvalo o'zi mustaqil ma'no anglatishi lozim. Masalan, uzumzor so'zini tahlil qilsak, uzum yetakchi morfema, -zor yasovchi morfema. Uzum so'zi o'zi mustaqil ma'noni ya'ni mevani ifodalab turubdi. -zor affiksi qo'shilgandan so'ng esa so'z anglatayotgan ma'no shakli o'zgarganligini anglash mumkin. Uzumzor so'zi yetakchi va ko'makchi morfemalar qo'shilishidan anglashilgan ma'nosi uzumlar o'sadigan joy, bog'ni anglatmoqda. Bundan anglashiladiki, asosga qo'shimcha qo'shilishi natijasida so'zning nafaqat shakli balki ma'nosi ham tubdan o'zgarishi mumkin. Bu esa asos va qo'shimchalarga ajratishda yetakchi omil bo'la oladi. O'zbek tilida morfemalar ma'lum ketma-ketlik asosida shakllanadi. Ko'p hollarda yetakchi morfema avval keladi, undan so'ng ko'makchi morfema qo'shiladi. So'zni morfemik tarkibga ajratishdan oldin morfemik tarkibni yaxshilab ajrata olish lozim. Bu jihatdan har bir morfema ma'lum vazifa bajarishi kerak. O'zak morfemalar leksik ma'no anglatishi shart. Affiks morfema o'zaktan keyin keladi, o'zi mustaqil qo'llana olmaydi. O'zak morfemalar mustaqil qo'llana oladi. Affiks morfemalar xarakteriga ko'ra ikki turga bo'linadi: So'z yasovchi va shakl yasovchi affikslar. So'z yasovchi affikslar so'zga qo'shib yangi ma'no hosil qiladi ya'ni asosga qo'shib asosning ma'nosini tubdan o'zgartiradi. Masalan, gul+chi=gulchi, suv+li=suvli, mehnat+kash=mehnatkash, bola+lik=bolalik, bilim+don=bilimdon, gul+zor=gulzor, tinch+lik=tinchlik, ek+in=ekin, baliq+chilik=baliqchilik, terim+chi=terimchi kabilar. So'z yasovchi affikslar yangi so'z yasash bilan birga yangi ma'no ham hosil qiladi. Shakl

yasovchi affikslar bir turkumga doir grammatik ma’no shakllantiradi. Shuni ham aytib o‘tish joizki, affikslar ma’nodoshlik, zid ma’nolilik va shakldoshlik xususiyatiga ham ega bo‘la oladi. Masalan, qalamdon – qadrdon, toshqin - jo‘shqin, o‘roq – qo‘rqoq, taroq - tartqoq, bilim - ayrim. Ushbu so‘zlarda bir xil qo‘shimcha qo‘shilsa ham bitta qo‘shimcha ikki turkumga oid so‘z yasagan. Asosan sifat so‘z turkumiga oid so‘zlarni hosil qilishda affikslar o‘rtasida zid ma’nolilik hodisasi kuzatiladi: badavlat - davlatsiz, ko‘ngilli - ko‘ngilsiz, shirador - beshira. Ushbu affikslar orasida ko‘proq -li va -siz, -dor va -be qo‘shimchalari qarama-qarshi ma’noda qo‘llanilish hodisasi mavjud. -li, -kor, -dor, -bo, -ba, -ser kabi qo‘shimchalar ma’nodoshlik xususiyatiga ega. Sergo‘sh-t-go‘sh-tli, savlatli-basavlat, boxabar-xabardor kabi. “Ko‘p morfemali so‘zning bir morfemali so‘zga o‘tishi soddalahuv deyiladi”<sup>2</sup> Morfemalar tarkibida bo‘ladigan o‘zgarishlar ham mavjud bo‘lib, morfemalar soddalahuv va murakkablashuv jarayonlarida bo‘ladi. Soddalahuv ma’lum so‘zning makon va zamon nuqtayi nazaridan o‘zgarib, muarakkab ko‘rinishini soddasiga almashirish jarayonidir. Masalan, biz tub so‘z deb hisoblaydigan yuksak so‘zi ham aslida yuk + sa +k ko‘rinishida tarkiblangan ya’ni bu so‘z tarkibida fe’l va sifat yasovchi qo‘shimcha mavjud deya qaralgan. Lekin hozirgi kunga kelib ushbu so‘z muqobil variant sifatida tub so‘z deb olinadi. Murakkablashuv esa avval tub deb olingan so‘zning yasama so‘z qatoriga o‘tib qolishi. Affiks morfemalar so‘zning oldingi yoki oxirgi qismida qo‘llanib kelishiga ko‘ra ikki turga ajratiladi: perifiks va suffiks. Suffiksni o‘zbek tilidagi so‘zlar yordamida ifodalash mumkin ya’ni qo‘shimcha so‘zning oxirgi qismiga qo‘shiladi: bor+d+im, ekin+zor, suv+li. Periks ko‘proq fors-tojik tillarida uchraydi. Bebosh, serunum, boxabar kabi

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, morfemalar murakkab tushunchadir. Morfemalar bir necha xususiyatlari bilan farqlanishini ko‘rib o‘tdik. So‘zlar morfologik tizimga ega bo‘ladi. Avvalo asos ya’ni yetakchi morfema bo‘ladi keyin unga qo‘shimcha ma’no beruvchi ko‘makchi morfema bo‘ladi. So‘zlarni morfemik tahlil etganda shuni unutmaslik lozimki, so‘zlarning asosini topishda yetakchi morfemani topish muhim. Ayrim holatlarda ikki va undan ortiq affikslar qo‘shilishi natijasida so‘z ancha murakkablashadi. Ayni shu damda so‘zning ma’noli qismini ajratib olishda bi necha jihatlarni e’tiborga olish muhim. Kutubxona so‘zini aslida murakkab

<sup>2</sup> Usmonov S. Hozirgi o‘zbek tilida so‘zning morfologik tuzilishi

shaklda bo‘lgan kitob+xona ko‘rinishida ma’noli qismlarga ajratilgan keyinchalik ushbu so‘z soddalashuv hodisasi natijasida o‘zining shaklini o‘zgartirgan. Umumlashtirilgan holda aytish mumkinki, so‘zlar birinchi navbatda morfemik tarkib asosida shakllanadi va grammatik ma’no anglatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Nurmonov A. “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi” T-1995
2. Moirzaev M., Rasulov I., Usmonov S. “O‘zbek tili “ T- 1972
3. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” T-1992
4. Shoabdurahmonov Sh. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” T-1980
5. G‘ulomov A. “O‘zbek tilida so‘z yasash usullari haqida” Til va adabiyot instituti ilmiy asarlari 1-kitob
6. Hojiyev A. “So‘zning morfologik va so‘z yasalish strukturasi” O‘zbek tili va adabiyoti – 1976.
7. Mengliboevna, B. S., & Atakhanovich, M. S. (2021). Phonetic-Lexical Commonity and Characteristics in Uzbek and Karakalpak Literature Text Lexemas. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 10, 6-8.
8. Norov, I., & Xaytbayev, O. (2023). TIL TA’LIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUV. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(9), 65-72.
9. Norov, I. (2023). O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLARDA YONDASHUV. Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения, 1(6), 39-43.
10. Sherali, M. (2023). Qoraqalpoq xalq maqollarining ba’zi aksiologik xususiyatlari. Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari, 1(1), 73-76.
11. Norov, I., Yo‘ldoshev, J., & Yo‘ldoshev, S. (2023). ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARS TASHKIL QILISH. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(4), 40-47.
12. Матжанов, Ш., & Абдула, И. (2022). О ‘zbek tilida qo ‘llaniladigan ayrim maqollarning genetik, leksik-semantik xususiyatlari. Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации, 1(1), 82-83.
13. Матжанов, Ш., & Курбанбаев, О. (2022). So ‘z ichida so ‘z... Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации, 1(1), 100-101.
14. Matjanov, S. (2022). LIRIKADA TABIAT TASVIRI. ZAMONAVIY TA’LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI, 1, 19-20.